

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ISAAC NYUTON
(1643-1727)



2022

APREL

№39



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
12-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-12**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-12**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 39-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

1. Axmadxujaeva Gulbaxor Muydinovna O'QUVCHILARNI BO'SH VAQTINI MAZMUNLI TASHKIL ETISHDA MUSIQA TO'GARAKLARIDAN FOYDALANISH.....	7
2. Сайидова Нилуфар Баходир кизи, Худойбердиев Жаҳонгир Баходир ўғли XIX АСР ОХИРИ XX АСРНИНГ БОШЛАРИДА ТУРКИСТОНДА ТАШКИЛ ЭТИЛГАН ИЛМИЙ ЭКСПЕДИЦИЯЛАР.....	9



МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

О'QUVCHILARNI BO'SH VAQTINI MAZMUNLI TASHKIL ETISHDA MUSIQA TO'GARAKLARIDAN FOYDALANISH

Axmadxujaeva Gulbaxor Muydinovna

Farg'ona viloyat Marg'ilon shahar

1-DIUM 1-toifali musiqa va madaniyat o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarni bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishda musiqa to'garaklarini tashkil etish haqida fikr mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchi, ma'naviy kamolot, musiqa, estetik tarbiya, estetik did.

O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunida iqtidorli bolalarni izlab topish, ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish kabi muammolar uzluksiz ta’lim tizimining muhim pedagogik vazifasi sifatida ko’rsatib o’tilgan. O’quvchilarning badiiy ijodiyot sohasidagi iqtidorlarini ro’yobga chiqarishda, ularning estetik ehtiyojlarini qondirishda musiqa ta’limi alohida o’rin egallaydi. Bunda, o’quvchi-yoshlar ijodiyot uylari, saroylari, o’lkashunoslik va sayyohlik markazlari, bolalar qo’g’irchoq va yosh tamoshabinlar teatrlari, klub va kutubxona, sport va musiqa maktablari, yozgi oromgohlar va boshqa muassasalar tomonidan olib boriladigan ta’lim-tarbiya va madaniy tadbirlarni tilga olish mumkin.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan o’quvchi-yoshlarni ijodkorligini shakllantirish, ularni bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazish, san’at turlari bo’yicha o’z iqtidorlarini namoyish etish borasida tavsiya etilgan 5 ta muhim tashabbusning birinchi tashabbusida yoshlarni musiqa, rassomlik, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, qobiliyatlarini namoyon qilishni ta’minlash choralarini ko’rish kabi qator vazifalar belgilab berildi. O’zbek xalqi milliy qadriyatlari tizimida milliy musiqa san’ati xalq hayotini barcha tomonlarini badiiy aks ettirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. So’ngi yillarda milliy musiqa boyliklarini tiklash, to’plash, nashr qilish hamda ta’lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishning ilmiy pedagogik asoslarini o’rganish bo’yicha e’tiborga molik ishlar amalga oshirilgan bo’lsa-da, bu ulkan bebaho xazinaning qamrovi va ko’lami oldida qilinayotgan ishlar hajmi yanada kengayganligini, yanada aniqroq qilib aytadigan bo’lsak, mazkur masalada shaxsan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning shaxsiy tashabbusi kuchayganligini ko’rish mumkin.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o’rin tutgan va inson shaxsiyatining shakllanishida muhim rol o’ynaydigan san’at turidir. Eramizdan oldingi IV asrdanoq yunon faylasufi Platon shunday degan edi: “Yoshlikda eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san’atda emasmikan, zeroki, ritm va garmoniya hammadan ko’proq shu vaqtda qalbga chuqur yo’l topadi va salobat baxsh etib, uni ko’rkam qiladiki, agar tarbiya to’g’ri yo’lga qo’yilgan bo’lsa, aks holda uning teskarisi bo’lib chiqadi. Uning shogirdi Aristotel (Aflotun) komil ishonch bilan mazkur fikrni quvvatlaydi: “Musiqa kishi ruhining axloqiy tomoniga ma’lum darajada ta’sir etadi, bas shunday ekan, u yoshlarning tarbiyasiga o’z ta’sirini ko’rsatadi”. Shu o’rinda Abu Nasr Forobiyning musiqa haqidagi fikrlari e’tiborga loyiqdir. Forobiy musiqani tarbiyaviy fan deb ataydi va uning ahamiyati haqida shunday deydi: “Bu fan shu ma’noda foydaliki, kimning fe’l-atvori muvozanatni yo’qotgan bo’lsa, muvozanatga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolga yetkazadi va muvozanatda bo’lmaganlarning muvozanatini saqlaydi. Bu tananing sog’ligi uchun ham foydalidir, chunki, tana kasalga uchrasa ruhan so’liydi, tana qiyinchilikka uchrasa, ruh ham azobga uchraydi. Shu sababli tananing davolanishi ruhni davolash orqali amalga oshiriladi, ovozlarning ta’siri ostida ruhiy quvvatlar o’z substantsiyasiga moslashadi va tartibga, muvozanatga keladi”

Yosh o’quvchilarni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashga ta’sir etuvchi omillar qatorida sinfdan tashqari musiqiy to’garaklar faoliyatining pedagogik imkoniyatlari alohida e’tiborga loyiq. Bunda milliy va jahon musiqa san’atiga o’quvchilar ma’naviyatini shakllantiruvchi vosita sifatida qarash, tarbiyalash imkoniyatlarini, asosiy yo’nalish va xususiyatlarini aniqlashga, o’quvchi shaxsiga



ta'sir etish sifatlarini ochib berishga imkon beradi.

Musiqqa to'garaklari vositasida o'quvchi-yoshlarning ma'naviyatini shakllantirish muammosi quyidagi jihatlarni muhim vazifa sifatida belgilaydi:

- o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, kasbga yo'llash, ularda kreativlik (ijodiy) qobiliyatlarini tarkib toptirish, milliy ruhda tarbiyalashning pedagogik xususiyatlarini o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish, ta'lim tarbiya ishlarini olib borish;

- o'quvchi-yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda musiqa to'garaklarini faoliyatini o'rganish;

- musiqa to'garaklari asosida o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish va milliy ruhda tarbiyalash metodlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish va boshqalar. Sinfdan tashqari musiqa to'garaklari faoliyatini amalga oshirishda mahalliy xususiyatlarni, o'zining yo'nalishlarini, rivojlanish istiqbollarini, jamoa normalari, qoidalari va an'analarini, moddiy texnikaviy ahvolini, faoliyat dasturini hisobga olgan holda har bir umumiy o'rta ta'lim maktabida sinfdan tashqari musiqa to'garaklarining maqsadi va asosiy vazifalarini zamon asosida aniqlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (23.09.2020) // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1313-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi 1059-son Qarori

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriëti, 1993. – 222 b.



ХІХ АСР ОХИРИ XX АСРНИНГ БОШЛАРИДА ТУРКИСТОНДА ТАШКИЛ ЭТИЛГАН ИЛМИЙ ЭКСПЕДИЦИЯЛАР.

Сайидова Нилуфар Баҳодир қизи
Камолиддин Бехзод номидаги Миллий
рассомлик ва дизайн институти
Музейшунослик йўналиши
1 босқич магистранти
Худойбердиев Жаҳонгир Баҳодир ўғли
Ўзбекистон давлат табиат музейи
директор ўринбосари

Аннотация: Ушбу мақолада XIX асрнинг охири XX аср бошларида Туркистон ўлкасига уюштирилган экспедицияларнинг сабаблари ва натижалари ҳақида билиб олишингиз мумкин. Бундан ташқари юртимизда ташкил этилган дастлабки музейнинг фаолияти, уни ташкил этишда жонбозлик кўрсатган бир гуруҳ олимларнинг ҳаёти ҳақида маълумотга эга бўласиз.

Калит сўзлар: Музей, Экспедиция, зоологич, ботаника, этнография, фонд, Северцов, И.Г. Борщов, Иван Гурьянов, Л.С. Берг, А.И. Бутаков, А. П.Федченко, И.В.Мушкетов, В.Ф.Ошанин, В.В.Бартолд, Туркистон музейи, Табиат музейи, музей дастури.

Тарихдан маълумки, Марказий Осиё инсоният тарихидаги энг кўҳна цивилизациялардан биридир. Шу жумладан, юртимиз худудида илм-фан тараққиёти чуқур тарихий илдишларга эга. Ўрта Осиё азалдан бутун дунё учун қизиқарли ва сирли ўлкалардан бири бўлган. Уларни ўрганиш, тадқиқотлар ўтказиш учун асрлар давомида сайёҳлар ташриф буюришган. Аммо бу жараён XIX аср охири XX аср бошларида жадал суръатларда ўсди. Хусусан, XIX асрнинг охирларида келган Н. А. Северцов, ботаник И.Г. Борщов, препаратор Иван Гурьянов, Л.С. Берг, А.И. Бутаков, А. П.Федченко, И.В.Мушкетов, В.Ф.Ошанин, В.В.Бартолд каби олимлар Туркистонни атрофлича ўрганган рус зиёлилари эди. Уларнинг асарларидан география, геология, ботаника, зоология, минерология каби соҳалар билан бир қаторда, нумизматика, тарих, этнографияга оид маълумотлар, қадимий ёдгорликларни, биноларни ўрганиш бўйича тадқиқотларни ҳам кўришимиз мумкин. Кўплаб илмий тадқиқотлар, экспедициялар уюштирилгандан сўнг, турли буюмлар, қадимий ашёлар йиғилиб қолган. Олимларни ўзида бирлаштирган бир қанча нуфузли жамиятлар тузула бошланди. Тадқиқотчилар томонидан барча йиғилган коллекцияларни бирлаштириш, уларни бир тартибга солиш масаласи бош масалага айланди. Уларни бир ерга йиғиш, тартибга солиш, аҳоли учун намоиш қилиш мақсадида 1876 йилда Туркистонда дастлабки музей очилиш масаласи кўриб чиқилди. Юртимизда дастлабки музейларнинг қурулиши, уларнинг ташаббускорлари А. П.Федченко, В.Ф.Ошанин, В.В.Бартолд каби олимларнинг бевосита номлари билан боғлиқдир.

Алексей Павлович Федченко рус олими, биолог, географ ва сайёҳ бўлган. У Ўрта Осиёга биринчи бўлиб келган тадқиқотчилар таркибида бўлган. Олим минтақанинг ўсимлик, ҳайвонот дунёси, географияси ва этнографиясига оид материаллар тўплаган. Паразитология ва энтомологияга оид асосий илмий ишларни олиб борган. У Самарқанд атрофларини, Жиззах, юқори Зарафшон, Қорақум чўлларида экспедициялар уюштирган. Тадқиқотлари натижасида кўплаб ноёб коллекциялар йиғган бўлиб, кейинчалик ташкил этилган “Тошкент музейи” га топширади.

Василий Федорович Ошанин эса Алексей Федченконинг шогирди ва ҳамкасби бўлган. У табиатшунос, антрополог, ва этнограф бўлган. Ошанин Туркистон саёҳатчиси, тадқиқотчиси сифатида машҳурдир. 1876 йилда М.Д. Скобелевнинг экспедициясида табиатшунос сифатида, 1878 йилда эса Ҳисор, Шахрисабз, Қоратегин, Олойга уюштирилган тадқиқотларга раҳбарлик қилган. Илмий изланишлари натижасида чигирткаларнинг (*Stenobotrus*) ноёб турларини қайд этган. Табиатшунос, энтомолог В.Ф. Ошанин ташаббуси билан ҳозирги кунда фаолият юритиб келаётган, Ўрта Осиёда ўзининг ноёб ҳашаротлар коллекциясига эга бўлган Ўзбекистон давлат табиат музейи (дастлаб Туркистон музейи дейилган) очилган. 1883 йилга келиб музейда 3200 та экспонат бўлиб, зоологияга оид экспонатлар



кўпчиликини ташкил қилар эди. Музейнинг минглаб экспонатлари Туркистон флора ва фаунаси бой ва ноёб турлардан ташкил топган. Уларни А.Регель, И.Мушкетов, Д.Ивановлар каби олимлар тақдим қилишган. Қисқа вақт ичида ташкил этилган музей фонди олимларнинг тадқиқотлари натижасида йиғган коллекциялари билан бойитилди. Музей фонди кўпайгандан сўнг, музейнинг дастури ҳам ишлаб чиқилди, унда “Бирон – бир музей ташкил этилишининг мақсади, бир жойнинг ўзида имкон қадар тўлиқлигича табиатнинг учта флора, фауна, маъдан бойлиги, санъат асарлари намуналари ёки ишлаб чиқариш маҳсулотларини йиғишдан иборат”¹, деган банди ҳам бўлган. Бундан кўриниб турибдики, дастлабки ташкил этилган музейда барча турдаги экспонатлар мавжуд бўлган. Уларнинг сони ошиб кетганлиги, музей биносининг ҳажми кичик бўлганлиги ва бир қатор сабаблар туфайли музей тармоқлари ажралиб чиқади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Д.Т.Курязова “Музей иши асослари” Тошкент 2019 й
2. “Ўзбекистон давлат табиат музейи биноси тарихи” 2018 й
3. Д.Т.Курязова “Музей иши тарихи ва назарияси” 2007й
4. Д.Х.Зияева “Туркистон ўлкасига уюштирилган табиий фанларга оид илмий тадқиқотлар” 2019й

1 Д.Т.Курязова “Музей иши асослари” Тошкент 2019 й 21 бет

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 12-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000